



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNING AHAMIYATI

Erkinova Nozima Utkir qizi

Innovatsion texnologiyalar Universiteti assistent o'qituvchisi

Rixsiboyeva Hilola Abdurashid qizi

Innovatsion texnologiyalar Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning mazmuni, ahamiyati va bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim talablari asosida muhitni shakllantirish usullari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, rivojlantiruvchi muhit, bola rivoji, ta'lim-tarbiya, pedagogik texnologiyalar*

KIRISH

Bolaning rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan markazlar faoliyati nafaqat bolani mustaqil hayotga tayyorlaydi balki bugungi kuni samarali o'tishi, o'sish va rivojlanish jarayoni tabiiy holda kechishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi. Buyuk olimlar Jan Piaje, Erikson, Lev Vigotskiy nazariyalari bo'yicha bolani o'rab turgan rivojlantiruvchi muhitni faollik markazlariga bo'lishni tavsiya etadi. Muhit bolaning bugungi imkoniyatlaridan bir qadam oldinda bo'lishi, uni intellektual va jismoniy harakatga undashi lozim. Buning uchun guruhdagi barcha materiallar va jihozlar sohalar bo'yicha tartibga solinishi lozim. Bu bolalar o'yinlari va ishlarining yanada qulay uyushtirilishiga yordam beradi. Bu sohalar faollik markazlari deb ataladi. Bugungi kunda rivojlantiruvchi markazlar deb yuritilmoqda.

Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish tamoyillari va rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishga qo'yiladigan talablar:

1. Eng avvalo markazlarda toza havo, toza joy, normal harorat va yorug' xonalarda tashkil etilishi lozim;

2. Har bir markaz bolani noxush, kutilmagan hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joyda bo'lishini ta'minlash;

3. Markazlarda bolalarning harakat, tajriba, va kashf qilishlarini rag'batlantirish, buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, masalan, jihozlarning yetarli bo'lishi, kichik tadqiqot va tajribalar uchun ham;

4. Markazlardagi barcha jihoz va qo'llanmalar bolaning bo'yi yetadigan balandlikda bo'lishi hamda bola ulardan bemalol foydalana oladigan bo'lishi kerak;

5. Markazlardagi faoliyat davomida bolalar o'rtasida hamkorlik va muloqotni rag'batlantirish (kichik guruhlar, juft bo'lib va o'yin o'ynashlariga sharoit yaratilgan bo'lishi kerak);



6. Bolalarda muassasaga tegishlilik, markazlarda jihozlarni o`z joyida turishi, mavzular bo`yicha taqsimlanishi zarur;

7. Markazlar mazmunli qismlarga bo`linishi va u yerda bola uchun kerakli va qiziqarli ashyolar, jihozlar, o`yinchoqlar, tarqatma materiallar bo`lishi zarur;

8. Markazga tegishli mebel bolaning jismoniy holatiga va erkin harakatlana olishiga to`siq bo`lmaydigan qilib joylashtirilgan bo`lishi, bola o`ziga tegishli jihozlarni bemalol harakatlantira olishi, nogironlarga mos mebel ham bo`lishi kerak;

9. Markazlardagi rivojlantiruvchi muhit tarbiyachilarga ham, bolalarga ham qulay bo`lishi kerak;

10. Bolaga erkin tanlash imkoniyatini berish va mustaqil qaror qabul qilishga undash muhim;

11. Bolaning o`z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishiga yordam berish zarur;

12. Markazlardagi bolalar faoliyati samarasi kundalik qilinadigan ishlarni biror jadvalda bola ko`ra oladigan va tushunadigan holatda ilib qo`yish.

NATIJALAR

Rivojlantiruvchi muhit — bu bolaning mustaqil faoliyati, o`yini va ta`lim jarayoni uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan ta`limiy makondir. U bolaning qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Rivojlantiruvchi muhitning eng asosiy ahamiyati uning rivojlantiruvchi – hususiyatiga ega ekanligidadir. Rivojlantiruvchi muhit bolalar uchun maqsadli va turli xil faoliyat bilan shug`ullanishiga ko`pgina imkoniyatlarni berish maqsadida tashkil etiladi. Maktabgacha ta`lim muassasalarida nafaqat guruhlar xonasi, balki katta guruhlar uchun mo`ljallangan boshqa xonalarda ham turli-tuman tarkibiy qismlardan iborat rivojlantiruvchi amaliy muhitni tashkil etish mumkin. Maktabgacha ta`lim muassasasida barcha maydonli xonalar bolalar uchun ochiq bo`lishi kerak. Bola agar bog`chaga kelganda o`zini o`z uyi kabi qadrdon, iliq, shinam, o`zi va o`rtoqlari uchun ochiq bo`lgan joyda yurgandek sezsa, bola to`laqonli rivojlanadi va faol harakat qila oladi. Bolalar kattalar jamiyatida yashashadi, biroq bola rivojlanishi ular orasidagina emas, balki o`z dunyosi, ya`ni bolalar o`yinchoqlari, bolalar libosi, bolalar kitoblari, bolalar rasmlari va boshqa narsalar qurshovida kechadi. Ta`lim muassasasidagi rivojlantiruvchi amaliy muhitning barcha tarkibiy qismlari bolaning qo`li, bo`yi va yoshiga mos tarzda bo`lishi kerak. Hozirgi vaqtda dunyo psixologlari ta`kidlaganidek, “INDIGO” bolalar dunyoda sodir bo`layotgan voqea-hodisalarni kattalardanda tez sezmoqdalar. Shuning uchun bugungi kun tarbiyachilarioldida bir qator dolzarb vazifalar turibdi. Shulardan biri ta`lim jarayonida interaktiv usullardan foydalanishdir. Tarbiyachilarni interaktiv usullardan oqilona, maqsad va sharoitga muvofiq tarzda didaktik tamoyillariga asoslangan holda foydalanishiga o`rgatish bugungi kunda zamonaviy pedagogikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta`lim muassasalarida interaktiv usullardan “Aqliy hujum”, “rolli o`yin”, “kichik guruhlarda ishlash”, “bahs-munozara”, “galereyaga sayr”, “Klaster”, “boomerang” lardan foydalanish mumkin.



Bolani mustaqil ijod qilish, bilim olish, fikrlarga o‘rgatishni kafolatlaydigan jarayon bu – pedagogik texnologiyadir.

Pedagogik texnologiya o‘quv jarayoning shunday loyihasiki, u bir kishi yoki biror ijodiy guruh tomonidan ishlab chiqiladi, undan barcha tarbiyachilar foydalana oladilar. Bolaga bilimlar tayyor holda berilmaydi, u kelgusida bilimlarni manbalardan mustaqil ola bilish, fikrlay olish, mustaqil pozitsiyada tura olishga o‘rgatiladi. Barcha bolalarni o‘z qobiliyatlari ehtiyojlari darajasida albatta o‘zlashtirib olishlari kafolatlanadi. Yuqorida keltirilgan interaktiv usullar va metodlardan foydalanish maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligiga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim muassasasida imkoniyatlarni, shart- sharoitlarni hisobga olib rivojlantiruvchi muhitni yanada boyitish mumkin. Hozirgi davrda maktabgacha ta’lim muassasasida zamon talablariga mos “Lego” o‘yinchoqlari, kompyuterlar va Montessori metodikasi bo‘yicha bolalar sensorikasini rivojlantirib bormoqda. Montessori metodikasi Mariya Montessori tomonidan yaratilgan bo‘lib, u bolani mustaqil shaxs sifatida rivojlantirishga qaratilgan. Masalan bu metodikada bola o‘zi qanday o‘yin o‘ynashni, qaysi mashg‘ulotni bajarishni, qancha vaqt shug‘ullanishni o‘zi tanlaydi. Tarbiyachi faqat yo‘l – yo‘riq ko‘rsatadi, majburlamaydi. Bu orqali mustaqillik va mas’uliyat rivojlanadi, ya’ni bola o‘z tezligida rivojlanadi, boshqalar bilan solishtirilmaydi, tartib va intizom tabiiy shakllanadi, diqqat va sabr oshadi, ijodkorlik kuchayadi va o‘z- o‘ziga ishonch paydo bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Ramakayeva E. Одарённые и дети индиго: как и распознать.// “Boshlang‘ich ta’lim”, 2016, 3- son.
2. Yuldashev J. , Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – “ Fan va texnika” , 2008.
3. “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori.
4. Omonov, P. L. X. (2021). TALABALAR IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENSIYSSINI RIVOJLANTIRISHDA AUTENTIK MATERIALLARNING O‘RNI.
5. ОМАНОВ, П. Х. (2020). CONTENT AND FORMS OF USING AUTHENTIC VIDEO MATERIALS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'SOCIAL AND CULTURAL COMPETENCE. Иностраннe языки в Узбекистане.
6. Дубровина, М. Э., & Мухитдинова, Х. С. (2011). Сравнительно-типологический анализ причастия с показателем-gan в узбекском языке. Российская тюркология

